



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No1
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 178 sahifa.
2026-yil yanvar*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukaramova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

EKSPORT VA IMPORT OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH: TAHLIL VA AUDIT	10
Urinboev Bexruz Zoir o'g'li, Misirov Asliddin Mamasobirovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALARNING ROLI	15
Jabborov Muhammad Sanjarovich, Djurayeva Dilnoza Davron qizi, Song Jichung	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH OMILLARI VA MAKROIQTISODIY TA'SIRI.....	21
Xoliqulova Ra'no Sherali qizi, Berdiyev Nazirjon Abduvoseyevich	
КУЛЬТУРНЫЙ ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА	25
Ахтамов Огабек Улугбек угли, Фахритдинов Амриддин Фазлитдинович, Саидмуродов Жонибек Жахонгирович, Саттарова Зухра Илхомовна	
DAVLATNING YASHIL INVESTITSİYALAR ORQALI IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISH SIYOSATI.....	31
Sharipboev Hasanboy Marks o'g'li, Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI O'SISHIDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING STRATEGIK O'RNI: PREZIDENT MUHOJAJATNOMASI ASOSIDA ILMIY TAHLIL	35
Ma'rupov Zahiriddin Feruzovich, Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDAGI BIZNES-SUBYEKTLARINI BAHOLASH: ESG MEZONLARI ASOSIDA BARQARORLIK INDEKSINI ISHLAB CHIQUISH VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	39
Po'latov Orzubek Fazliddin o'g'li, Haqnazarova Yulduz Juraqulovna	
ФИНАНСОВЫЕ ИНСТИТУТЫ КАК ФАКТОР МОДЕРНИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	43
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
AKSIZ SOLIG'I TUSHUMLARINING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUDJET DAROMADLARIDAGI ULUSHI: 2020–2024-YILLAR BO'YICHA IQTISODIY TAHLILI	49
Karimov Diyorbek, Abdurashidov Abdusamad	
O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARINING SOLIQ TUSHUMLARI VA FUQAROLARNING SOLIQ INTIZOMIGA TA'SIRI	55
Maxkamova Dildora Shavkat qizi, Ergashev Shavkat Maxkamovich	
ИНТЕГРАЦИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В МАРКЕТИНГОВЫЕ КОММУНИКАЦИИ КОМПАНИЙ.....	59
Рахимжонов Аброр Марифжанович, Кахрамонов Хуршид Шухратович	
BOZOR IQTISODIYOTIDA UMUMIY TALAB VA UMUMIY TAKLIF	66
O'ktamova Shaxruza Abror qizi, Norboyev Odil Abrayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IJTIMOYIY TARMOQLAR ORQALI MARKETINGNI RIVOJLANTIRISH USULLARI (O'ZBEKISTONDAGI YIRIK BRENDLAR MISOLIDA).....	70
Axmedova Robiya Rustamovna, Kadirova Sharafat Amonovna	
MINTAQANING INNOVATSION IQTISODIY RIVOJLANISH TENDENSIYASI	76
Rushana Taxirova, F.U.Umarov	
SAMARQAND VILOYATI UCHUN TURIZM MAHSULOTLARINI YARATISH	83
Alimardonova D.T., Tursunova G.R.	



BUXORO VILOYATINING MADANIY VA TARIXIY MEROSI ASOSIDA KREATIV TURIZM MAHSULOTLARINI YARATISH IMKONIYATLARI.....	91
Davronova G.O., Tursunova G.R.	
MAIN DIRECTIONS OF ECONOMIC AND SOCIAL EFFICIENCY IN SERVICE ENTERPRISES	96
Ilamonov Mehroj Akbar o'g'li, Xayitov Jamshid Xolvoyevich	
KREDIT MEXANIZMINING ELEMENTLARI O'RTASIDAGI ALOQADORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	102
Alimov Umid Xamid o'g'li, Umarov F. U.	
SURXONDARYO VILOYATIDA EKSPORTNI RIVOJLANTIRISHDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINING AHAMIYATI.....	109
Mamanazarov Javohir Kamolovich, Xurramov Ramazon Allayor o'g'li	
XALQARO BANKLAR TOMONIDAN INVESTITSION LOYIHALARNI KREDITLASH MEXANIZMI VA UNING IQTISODIY TA'SIRI	115
Boltayeva O'g'iloy, Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI VA UNING USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	119
Sharipova Mohinur, Uralova Sevara, Zaripova Sayohat Zafarovna	
DIRECTIONS FOR IMPROVING PUBLIC WELFARE AND REDUCING POVERTY.....	127
Jumanazarov Ro'zmurod, Rabbimov Elbek Abdulloevich, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
THE EVOLUTION OF E-COMMERCE IN UZBEKISTAN: TRENDS, DRIVERS, AND FUTURE PROSPECTS.....	132
Madina Abdujabborova, Nozima Zufarova	
IQTISODIY TRANSFORMATSIYA JARAYONINI BOSHDAN KECHIRAYOTGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSIYA BOZORLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	136
Hayot Abduqodirov, G'olib Baxriddinov, Karjavova Xurshida Abdumalikovna	
WAYS TO ENSURE THE FINANCIAL STABILITY OF ENTERPRISES THROUGH THE USE OF MONETARY AND CREDIT INSTRUMENTS IN BANKS	141
Mustafaeva Khurliman Azat kizi, Baymuratova Zina Aqilbekovna	
KICHIK BIZNES SUBEKTLARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RAG'BATLANTIRISH YO'LLARI.....	147
Xakimova Go'zal Akbar qizi, Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich	
TAX SYSTEM FOR SMALL BUSINESSES	152
A. Juzbaev, Davletyarova Guldana	
WAYS TO DEVELOP THE PRACTICE OF USING INNOVATION IN BANKS.....	156
Umedov Abdullo, Khodjimamedov Akmal Ashurovich	
IMPROVING THE ACCOUNTING OF INCOME FROM CORE ACTIVITIES IN SAM GLASS LLC.....	161
Usmanov Shakhzod Shokhrukhovich, Musaeva Shoira Azimovna	
JAMIYATDA YOSHLAR ISHSIZLIGI VA UNING IQTISODIY OQIBATI.....	167
Ubaydulloyeva Rayhona Fahriddin qizi, F.U. Umarov	
EKOLOGIYA TRANSFORMATSIYA VA IQTISODIY O'SISH: YASHIL IQTISODIYOT MODELI	174
Abduraxmonov Valijon G'ofurovich, Yusupova Dilnigor A'zamjon qizi	



EKOLOGIYA TRANSFORMATSIYA VA IQTISODIY O'SISH: YASHIL IQTISODIYOT MODELII

Abduraxmonov Valijon G'ofurovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Andijon fakulteti
Mutaxassislik, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar kafedrasii dotsenti,

Yusupova Dilnigor A'zamjon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Andijon fakulteti
"Moliya va moliyaviy texnologiyalar" yo'nalishi 2-bosqich talabasi
E-mail: dilnigoryusupova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada yashil iqtisodiyot konsepsiyasining nazariy asoslari hamda uning barqaror taraqqiyotdagi o'rne tahlil qilinadi. Tadqiqotda ekologik barqarorlik, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ochib beriladi. Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, yashil investitsiyalar va ekologik moliyalashtirish instrumentlarining milliy iqtisodiyot rivojlanishiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot modeli resurslardan oqilona foydalanish, karbon chiqindilarini kamaytirish va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Maqola yakunida yashil transformatsiyani jadallashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, yashil investitsiyalar, ekologik siyosat, qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi, yashil moliyalashtirish, karbon chiqindilari, iqtisodiy o'sish, barqaror taraqqiyot.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations of the green economy concept and its role in sustainable development. The study reveals the interrelationship between environmental sustainability, economic growth, and social well-being. It also examines the impact of renewable energy sources, green investments, and environmental financing instruments on national economic development. The analysis shows that the green economy model is a key factor in the rational use of resources, reduction of carbon emissions, and ensuring long-term economic stability. The article concludes with practical recommendations for accelerating the green transformation.

Key words: green economy, sustainable development, green investments, environmental policy, renewable energy, energy efficiency, green finance, carbon emissions, economic growth, sustainability.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические основы концепции зелёной экономики и её роль в обеспечении устойчивого развития. В исследовании раскрывается взаимосвязь между экологической устойчивостью, экономическим ростом и социальным благополучием. Также рассматривается влияние возобновляемых источников энергии, зелёных инвестиций и инструментов экологического финансирования на развитие национальной экономики. Результаты анализа показывают, что модель зелёной экономики является важным фактором рационального использования ресурсов, сокращения углеродных выбросов и обеспечения долгосрочной экономической устойчивости. В заключении статьи разработаны практические рекомендации по ускорению зелёной трансформации.

Ключевые слова: зелёная экономика, устойчивое развитие, зелёные инвестиции, экологическая политика, возобновляемая энергия, энергоэффективность, зелёное финансирование, углеродные выбросы, экономический рост, устойчивое развитие.

KIRISH

XXI asrda global iqtisodiy rivojlanish jarayoni jiddiy ekologik muammolar bilan birga kechmoqda. Iqlim o'zgarishi, atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlari hajmining ortishi, suv va yer resurslarining kamayishi hamda bioxilma-xillikning qisqarishi iqtisodiy taraqqiyot modelini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. An'anaviy "resursga asoslangan" o'sish modeli uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlashda cheklangan imkoniyatlarga ega ekani sababli, iqtisodiyotning ekologik mas'uliyatli va resurs tejovchi shakliga bosqichma-bosqich o'tish muhim ahamiyat kasb etmoqda.



Yashil iqtisodiyot – aholi farovonligini oshirish bilan bir qatorda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy tizim hisoblanadi [1].

Shu nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi barqaror rivojlanishning muhim yo'nalishi sifatida shakllandi. U iqtisodiy o'sish, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy farovonlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish hamda karbon chiqindilarini kamaytirishga asoslanadi.

Bugungi kunda ko'plab davlatlar o'z milliy rivojlanish strategiyalariga yashil transformatsiya tamoyillarini joriy etmoqda. Yashil investitsiyalar hajmining oshishi, ekologik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va yashil moliyalashtirish instrumentlarining kengayishi iqtisodiy taraqqiyotning yangi bosqichini shakllantirmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun esa yashil iqtisodiyot modernizatsiya va raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" doirasida amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risidagi Farmoni [2] mamlakatimizda ham yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

Shu bois, mazkur maqolada yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari, uning iqtisodiy o'sish va barqaror taraqqiyotga ta'siri, shuningdek milliy iqtisodiyot sharoitida qo'llash istiqbollari atroflicha tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan "Inclusive Green Growth" konsepsiyasida iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi integratsiya masalalari yoritilgan [3]. Tadqiqot natijalariga ko'ra, energiya samaradorligiga kiritilgan investitsiyalar iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Xalqaro Energetika Agentligi (IEA) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya sohasiga global investitsiyalar 500 milliard AQSh dollaridan oshgan [4], bu esa yashil transformatsiya jarayonlarining jadal sur'atlarda kechayotganini ko'rsatadi.

OECDning "Green Growth Strategy" hujjatida yashil o'sish innovatsiyalarni rag'batlantirish va yangi ish o'rinlari yaratish omili sifatida baholanadi [5]. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya sektori global miqyosda millionlab yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qilmoqda.

Milliy darajada esa O'zbekiston Respublikasining 2019-2030-yillarda yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini ko'paytirish hamda suv resurslaridan oqilona foydalanish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [6]. Strategik hujjatlarga muvofiq, 2030-yilga borib elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi manbalar ulushini sezilarli darajada oshirish rejalashtirilgan.

Mazkur tadqiqot kompleks yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqotning nazariy asosini xalqaro tashkilotlar hisobotlari (UNEP, World Bank, OECD, IEA), shuningdek O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari tashkil etdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- nazariy tahlil va sintez usuli – yashil iqtisodiyot konsepsiyasining asosiy kategoriyalarini umumlashtirishda;
 - qiyosiy tahlil – an'anaviy iqtisodiy o'sish modeli va yashil iqtisodiyot modelini solishtirishda;
 - statistik tahlil – qayta tiklanuvchi energiya investitsiyalari va iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda;
 - normativ-huquqiy tahlil – O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga oid strategik hujjatlarini o'rganishda;
 - induktiv va deduktiv yondashuvlar – umumiy nazariy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda.
- Statistik ma'lumotlar xalqaro ochiq ma'lumotlar bazalari va milliy strategik hujjatlar asosida umumlashtirildi. Ushbu metodologik yondashuv yashil iqtisodiyotning iqtisodiy o'sish va barqaror taraqqiyotga ta'sirini tizimli baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki iqtisodiy o'sish hamda ijtimoiy farovonlikni mustahkamlashda ham muhim rol o'ynaydi. UNEP, OECD va Jahon banki hisobotlarida ta'kidlanganidek, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga yo'naltirilgan investitsiyalar global iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi hamda yangi ish o'rinlari yaratilishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona boshqarish uzoq muddatli barqaror rivojlanishning muhim omili hisoblanadi [7].



O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi milliy energetika tizimini modernizatsiya qilish, suv va qishloq xo'jaligi resurslaridan samarali foydalanish hamda ekologik siyosatni kuchaytirish orqali amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentning PQ-4477-sonli qarorida qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini oshirish va yashil moliyalashtirish instrumentlarini joriy etish vazifalari belgilangan. Mazkur chora-tadbirlar milliy iqtisodiyotning diversifikatsiyasini ta'minlash, uning raqobatbardoshligini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishga xizmat qiladi.

1-jadval. Elektr energiyasi ishlab chiqarish va qayta tiklanuvchi energiya ulushi¹

Yillar	Jami elektr energiyasi ishlab chiqarish (mlrd kVt soat)	Qayta tiklanuvchi energiya ulushi(%)
2019	63.5	10.0
2020	66.4	10.3
2021	71.1	11.2
2022	74.5	13.5
2023	78.0	16.0

Ushbu jadval yashil iqtisodiyot modeli doirasida energetika tizimidagi strukturaviy o'zgarishlarni ko'rsatadi.

2-jadval. Atrof-muhit ko'rsatkichlari(ekologik transformatsiya indikatorlari)[8].

Yillar	Atmosferaga chiqarilgan zararli moddalar(ming dona)	Suvdan foydalanish (mlrd m)	Qayta ishlangan chiqindilar ulushi(%).
2019	2450	51.2	12
2020	2380	49.8	14
2021	2410	50.5	16
2022	2300	48.7	18
2023	2250	47.9	21

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot modeli an'anaviy iqtisodiy o'sish modeliga nisbatan uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlashda samaraliroqdir. An'anaviy model ko'pincha tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanish va karbon chiqindilarining ortishiga olib keladi, bu esa iqlim o'zgarishi hamda ekologik inqiroz xavfini kuchaytiradi. Shu sababli, yashil iqtisodiyotning integratsion yondashuvi iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy maqsadlarni uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Xalqaro tajribaga ko'ra, yashil investitsiyalarni rag'batlantirish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik moliyalashtirish instrumentlarini kengaytirish iqtisodiy barqarorlik bilan ekologik xavfsizlikni o'zaro uyg'unlashtiradi. Milliy hujjatlar va strategiyalar, jumladan O'zbekistonning 2019-2030-yillarga mo'ljallangan yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi ham ushbu jarayonni amaliy yo'nalishlarda samarali tatbiq etish imkonini beradi. Shu bilan birga, mazkur yondashuv ijtimoiy tenglik va farovonlikni oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki yangi ish o'rinlari yaratiladi va resurslardan foydalanish samaradorligi ta'minlanadi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari yashil iqtisodiyot konsepsiyasining iqtisodiy taraqqiyot, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni o'zida mujassam etgan kompleks model ekanini tasdiqlaydi. Milliy va xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, yashil transformatsiya uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlashning strategik vositasi hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikni mustahkamlashda ham muhim rol o'ynaydi. Yashil iqtisodiyot modeli tabiiy resurslardan samarali foydalanish, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish hamda karbon chiqindilarini kamaytirishga asoslanadi. Shu bilan birga, ushbu model yangi ish o'rinlarini yaratish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

1 O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi rasmiy saytidan olindi.



O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi milliy energetika tizimini modernizatsiya qilish, ekologik siyosatni kuchaytirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini oshirish orqali bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bu esa mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlash hamda atrof-muhitni muhofaza qilishga xizmat qiladi.

Shu bois, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi nafaqat iqtisodiy taraqqiyotning strategik vositasi, balki ekologik xavfsizlik va ijtimoiy farovonlikni uyg'unlashtiruvchi integratsion model sifatida qaraladi. Kelgusida milliy va xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda yashil investitsiyalarni kengaytirish va ekologik moliyalashtirish instrumentlarini joriy etish barqaror rivojlanishni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. United Nations Environment Programme (UNEP). Green Economy Report.
2. SOFF akademik veb-sayti. "Prezident farmoni mazmun-mohiyati" maqolasi. – URL: <https://soff.uz>
3. World Bank. Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development. Washington, DC, 2012.
4. International Energy Agency (IEA). World Energy Investment Report. Paris, 2023.
5. OECD. Green Growth Strategy. Paris, 2011.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019–2030 yillarda O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4477-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4539502>
7. United Nations Environment Programme (UNEP). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. 2011.
8. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari. – URL: <https://www.stat.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

1-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>